



## BOSHLANG'ICH VA YUQORI SINIF O'QUVCHILARIGA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYADAN FOYDALANGAN HOLDA INGLIZ TILI DARS JARAYONLARINI TASHKIL ETISH

<sup>1</sup>Mirzoyeva Aziza Sirojiddin qizi

Samarqand davlat chet tillari instituti magistranti  
Azizamirzoyeva7@gmail.ru

<sup>2</sup>Eshqvatova Xurshida Sindorovna

Samarqand davlat chet tillari instituti magistranti  
Eshqvatovaa97@gmail.com

<sup>3</sup>Mirzayeva Nasiba Sirojiddinovna

SamDVMBU instituti o'qituvchisi  
Nasibamirzayeva16@gmail.ru

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7895782>

### ARTICLE INFO

Received: 28<sup>th</sup> April 2023

Accepted: 03<sup>rd</sup> May 2023

Online: 04<sup>th</sup> May 2023

### KEY WORDS

Pedagogik texnologiya,  
interfaol metodlar, ta'lim  
texnologiyasi, ochiq munozara,  
matbuot konferensiyasi.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada boshlang'ich va yuqori sinf o'quvchilariga turli xil pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlardan foydalangan holda ingliz tili darslarini tashkil qilishning samarali usullari yoritilgan.*

### KIRISH

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining eng muhim bo'lgan muammolaridan biri har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalash, o'z Vataniga va xalqiga sodiq insonlarni tarbiyalash hamda iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlashdan iboratdir. Jamiyat rivojlanishiga, asosan, yosh avlod ham o'z hissasini qo'shadi. Ta'limni rivojlantirishni biz, asosan, boshlang'ich sinf o'quvchilaridan boshlaymiz darkor. Negaki, "Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir", degan bizning dono xalqimiz. Shu munosabat bilan, boshlang'ich ta'limdagi eng muhim va ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan qarorlardan biri O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti 2012-yil 10-dekabrda "Chet tilini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli qaroridir [1; 239]. Bu qarorda 1-sinf o'quvchilariga ingliz tili darslarini, asosan, o'yin tarzidagi darslar, og'zaki nutq dars shakllari hamda zamonaviy texnologik vositalardan foydalangan holda o'quvchi ingliz tilidagi multafilmlar, inglizcha so'zlarning tarjimai kabi videoroliklar qo'yib beriladi. 2-sinfda esa o'quvchilar ingliz tili alifbosi bilan tanishadi va turli xil mashqlarni daftarda yozib bajarishadi. 3-4-sinflarda esa mavzular biroz murakkablashib boradi. Ingliz tilini yanada takomillashtirish chora tadbirlaridan biri bu umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilariga bir haftada ikki soat ingliz tili darslarining o'tilishi bo'ldi. Bu qaror 2013-2014- yillarda kuchga kirib maktablarda boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tili darslari o'tila boshlandi. Shubhasiz, bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim dargohlarida xorijiy tillar xonalarini zamonaviy axborot kommunikatsiyali texnologiyalar hamda o'qitishning ilg'or texnik vositalari bilan jihozlash, teleradiokanallarda bolalar va o'smirlarni xorijiy tillarga o'rgatuvchi dastur va ko'rsatuvlar olib borilmoqda.



Pedagogik texnologiya tushunchasi 60-yillardagi Amerika va g'arbiy Yevropada ta'limni isloh qilinishi bilan bog'liq tarzda kirib keldi. B. Blum, J. Keroll, P.Ya. Galperin, V.I. Davidov, N.A. Menchinskaya, Z.I. Kalmikova, L.I. Zankov texnologiyalari mashxur. O'qitishni tashkil qilishning texnologik yondashuvlari V.P. Bospalko, N.F. Talizina, L.M. Fridman, Yu.N. Kulyutkina, G.S. Suxobskoy, T.V. Kudryavsev, A.M. Matyushkin, M.I. Maxmutov kabi aksariyat psixolog va didaktikachilarga taalluqli hisoblanadi. Texnologik yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat o'qitish texnologiyalari bo'sh texnologiyalanganligi bo'yicha qolib ketmoqda. Bir qator o'yin va texnologiyalarda nazariy asoslar kuchaytirilgan, amaliy tomoni u qadar oydinlashtirilmagan. T. Ballo texnologiyaning bir tomonini, ya'ni o'qitishda topshiriqli yondashuvni yoritadi. Faqat 70-yillardan boshlab pedagogik adabiyotlarda bu so'zning mohiyati yangicha talqin etila boshlandi. Yapon olimi T. Sakamoto tomonidan «o'qitish texnologiyasi - bu o'qitishning maqbulligini ta'minlovchi yo'l-yo'riqlar tizimi bilan bog'liq bilimlar sohasi» [3;86] jekanligi e'tirof etiladi. Obyektiv borliqni o'rganishning tizimli yondashish metodi fanda keng ko'lamda qo'llanilgach, uning ta'siri ostida asta-sekinlik bilan PT mohiyatiga ham aniqlik kiritildi: rus olimasi N.F. Talizina texnologiyani «belgilangan o'quv maqsadiga erishishning oqilona usullarini aniqlashdan iborat» [4;312] deb tushuntiradi. Shuningdek, olima zamonaviy o'qitish texnologiya-si haqida fikr yuritib, uni alohida fan sifatida qarash kerakligini o'qtiradi: O'qitish texnologiyasi - bu o'quv jarayonini nima real tavsiflansa o'sha, o'qituvchiga o'rnatilgan maqsadlarga erishish uchun nimaga tayanish zarur bo'lsa o'sha.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ko'pincha interfaol, zamonaviy metodlardan foydalanish kerak. O'quvchilarga qo'yiladigan talablardan biri bu—mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Buning uchun ular bilan turli xildagi qiziqarli o'yinlar o'ynash, topishmoqlar, maqollar va she'rlar yodlatish jismoniy va aqliy rivojlanishi, nutqiy bilimdonligini oshiradi. Hozirgi kunda eng samarali usullardan biri—inglizcha multafilmlarni „subtitle” bilan ko'rishi hisoblanadi. Bolalar multafilmda o'zga ularni tushunmasada, undagi qahramonlarning harakatlaridan nima deyotganini anglab oladi. Bunday usullar bolalarning ingliz va rus tillarini yuqori natijada o'rganishga yordam beradi.

Men hozirgi kunda bolalarni so'zni his qilishni, jummalarni tuzishni, matnni tushunishni o'rgatmoqchiman. Men bu muammoni maktabdan tashqarida hal qila boshladim. Men ushbu masalani o'rganishni va “Milliy maktablarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirish lingvistik-metodik muammo sifatida” mavzusida ko'plab amaliy material to'plashni boshladim. Boshlang'ich maktab yoshida intellektning sezilarli darajada rivojlanishi kuzatiladi. Qobiliyatlarni rivojlantirish imkoniyati juda yuqori. Kichik maktab o'quvchilarining rus tilida kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish bugungi kunda eng kam rivojlangan uslubiy muammo bo'lib qolmoqda. Ko'pgina sinflarda turli darajadagi tayyorgarlik darajasidagi bolalar bor, bu turli darajadagi murakkablikdagi vazifalarni talab qiladi. O'qituvchi har qanday o'quvchini individual qobiliyatiga qarab rivojlantirishi va har bir shaxsning ijodiy imkoniyatlarini aniqlashi kerak. Mashqlar davomida bola o'zini o'zi anglash, o'zini o'zi nazorat qilish va o'zini o'zi qadrlashning rivojlangan shakllarini rivojlantiradi. Darsda qiziqarli va tushunarli topshiriq va mashqlar, topshiriqlar, savollar, topishmoqlar, o'yinlar, boshqotirmalar, krossvordlar va boshqalar qo'llanilishi lozim. Ingliz tili darslarini



boshlang'ich sinfdagi o'quvchilarga o'rgatish jarayonida o'quvchining fiziologik holati, yoshi va psixologik holatiga qarab darslar o'tiladi. Boshlang'ich sinflarga har bir xorijiy tilni o'rgatishdan oldin qiziqtirish lozim. Xorijiy til darslarini o'tganda, asosan, noan'anaviy va zamonaviy dars shaklidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Chet til ta'limida informatsion texnologiyalardan keng foydalanish tavsiya etiladi. Binobarin yuqori sinf o'quvchilarga grammatik xodisalarni o'rgatish jarayonida quyidagi informatsion texnologiyalardan foydalanishni lozim topdik: kompyuter texnologiyasi (internet tarmogi), interaktiv metodlar, ochiq munozara (disput), ekskursiya, auksion, matbuot konferensiyasi, konkurs, dumaloq stol, orzu-niyat, she'riyat turlari, chet til o'rgatish projekt metodi va boshqalar. Interaktiv metodlar qo'llanganda, o'quvchining o'zi mustaqil holda erkin fikr yuritadi, o'qituvchi bilan hamkor sifatida ishlaydi. Ingliz tili darslarida o'quvchilarining grammatik ko'nikmalarini takomillashtirishda internet texnologiyalari axborot olish va muloqot kilishning eng zamonaviy shakllaridan biridir. O'quvchilar internetdan foydalanib, ma'ruza va referatlar yozishadi. Bugungi kunda chegaralar ochilishi va xalqaro aloqalarning kengayishi bilan xorijiy tillarni o'rgatish metodologiya fanining eng muhim va dolzarb muammolaridan biriga aylanib bormoqda.

Chet tilni o'rganish sohasidagi jamiyatning ijtimoiy tartibi hozirgi vaqtda boshqa millat va madaniyat vakillariga nisbatan bag'rikenglik, ya'ni barcha turdagi kompetentsiyalarga ega bo'lgan mutaxassislarni: lingvistik, kommunikativ, lingvomadaniy, sotsial-madaniy va madaniyatlararo. Madaniyatlar dialogiga kirish qobiliyati o'rganilayotgan til mamlakatining mentaliteti, milliy xususiyatlari, urf-odatlar va madaniyatini bilishni nazarda tutadi.

## XULOSA

Bugungi kunda O'zbekistonda barcha jabhalarda kechayotgan islohotlar jarayoni ta'lim sohasini tobora kengroq va chuqurroq qamrab olmoqda. Xususan, bu yili ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi sifatida xorijiy tillarning tanlanishi e'tirofqa sazovordir.

Shunday ekan, oliy ta'lim muassasalarida bakalavr va magistrning kasbiy kompetensiyalariga qo'yilgan umumiy malaka talablaridan kelib chiqqan holda til bo'yicha ixtisoslikka yo'naltirilgan o'quv darslik va qo'llanmalarini, shuningdek, turli pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish oldimizda turgan eng birinchi vazifalarimizdan biridir. Bunda tegishli soha mutaxassislari bilan hamkorlikda ishlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Til mutaxassislari, xususan, chet tili soha mutaxassislari davlatimiz tomonidan til ta'limiga qaratilayotgan katta e'tibor va rag'batdan zavqlangan va ruhlangan holda, asosiy bosh maqsad – yurt kelajagi va ravnaqi uchun xizmat qiluvchi, dunyo bozorida raqobatbardosh, talab katta, bilimdon, har tomonlama yetuk kadrlar tayyorlash ishiga o'z hisslarini qo'shmog'i darkor.

## References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-Yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini Yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi tog'risida"gi PF-4947-son farmoni. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami T.-2017 –B 39
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-Yil 19-fevraldagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini Yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'grisida"gi PF-5349-son farmoni



3. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. T. "Moliya " nashriyoti, 2003 y. – 171 b.
4. M.Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi. "Nasaf" 2000 y.-80 b.
5. U. Tolipov, M.Usmanbayeva. pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. "Fan". 2005.
6. O'.Tolipov. Oliy pedagogik o'qitish tizimida umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari. T. "Fan".. 2004y.